

**21.09.2022 150067 lotga asosan**

**PUDRAT SHARTNOMASI-01**

2022 y. «27» 9

424-7-105-MT/2022-  
son

Urgut t.

Urgut tuman MTB (keyingi o‘rinlarda “Buyurtmachi” deb yuritiladi) nomidan J.Zoitov nizom asosida harakat qiluvchi bir tomondan va “Oqqurg‘on Building” XK (keyingi o‘rinlarda “Pudratchi” deb yuritiladi) nomidan nizom asosida harakat qiluvchi S.Nurmatov ikkinchi tomondan, quyidagilar to‘g‘risida mazkur shartnomani tuzdilar:

**1. SHARTNOMA PREDMETI**

1.1. Pudratchi o‘z tavakkalchiliga asoslangan va o‘zining hamda Buyurtmachining materiallaridan foydalangan holda Buyurtmachining topshirig‘iga asosan quyidagi ishlarni bajarish majburiyatini: Urgut tuman MTB tassarufidagi 59-DMTT binosini joriy ta‘mirlash, Buyurtmachi esa ushbu bajarilgan ishlarni qabul qilish va haqini to‘lash majburiyatini oladi.

**2. SHARTNOMA BAHOSI**

2.1. SHartnoma bahosi 1 065 000 000 (Bir milliard oltmish besh million) so‘mni tashkil etadi.

2.2. SHartnoma bahosi o‘z ichiga quyidagilarni oladi: Urgut tuman MTB tassarufidagi 59-DMTT binosini joriy ta‘mirlash

2.3. SHartnomaning 2.1- bandida ko‘rsatilgan baho dastlabki bo‘lib, so‘nggi baho Pudratchi taqdim etgan loyiha-smeta hujjalariiga muvofiq belgilanadi. SHartnoma bahosi inflyasiya natijasida taraflarning kelishuviga muvofiq o‘zgartirilishi mumkin. SHartnoma bahosining oshishi bilan bog‘liq xarajatlar Buyurtmachi tomonidan ushbu shartnomaning 3-bandida belgilangan tartibda qoplanadi.

**3. TO‘LOV SHARTLARI**

3.1. Ushbu shartnoma bo‘yicha to‘lov quyidagi tartibda amalga oshiriladi: Shartnoma imzolangandan so‘ng oldindan 15% to‘lov ko‘chiriladi. Ish xizmat bajarilgandan so‘ng bajarilgan ishlar dalolatnomasiga asosan 85% to‘lov ko‘chiriladi

3.2. To‘lov shakli: pul o‘tkazizsh orqali.

3.3. SHartnoma bo‘yicha so‘nggi hisob-kitob ishlar bajarilgandan so‘ng, qabul qilish jarayonida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish hisobga olingan holda, 10 kundan kechiktirmay Buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladi.

**4. MAJBURIYATLARNI BAJARISH MUDDATLAR**

4.1. Pudratchi ushbu shartnomaning 1.1-bandida nazarda tutilgan ishlarni ishlarning kalendar rejasida belgilangan muddatlarda bajaradi (1-ilova).

4.2. Buyurtmachi quyidagi muddatlarda Pudratchi tomonidan bajarilgan ishlar uchun haq to'laydi: Shartnoma imzolangandan so'ng oldindan 15% to'lov ko'chiriladi. Ish xizmat bajarilgandan so'ng bajarilgan ishlar dalolatnomasiga asosan 85% to'lov ko'chiriladi

4.3. SHartnomaning amal qilish muddati:

Boshlanishi – 2022 y. «27» sentyabr Tugashi – 2022 y. «31» dekabr

## 5. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI

5.1. Pudratchining majburiyatlari:

o‘z kuchi va mablag‘lari hisobidan ishlarning kalendar rejasida belgilangan hajmda va muddatlarda barcha ishlarni bajarish va Buyurtmachiga loyiha hujjatlariga mos keladigan holatda ishlarni topshirish;

loyiha muvofiq zaruriy materiallarni, qurilmalar, butlovchi ashyolarni qurilish maydonchasiga etkazib kelish va ularni qabul qilishni, tushirib olishni, omborga joylashni hamda qurilish davomida ularni saqlashni amalga oshirish;

o‘z kuchi va vositalari bilan materiallar, qurilmalar, ashyolarni joylashtirish va ushbu shartnoma bo‘yicha ishlarni bajarish uchun zarur bo‘lgan barcha muvaqqat binolarni qurish;

ushbu shartnoma bo‘yicha ishlarni bajarish uchun jalg qilinayotgan ixtisoslashtirilgan tashkilotlar bilan yordamchi pudrat shartnomalari tuzilganligi haqida Buyurtmachini xabardor qilish va yordamchi pudratchilar tomonidan ishlarning bajarilishini nazorat qilish;

qurilish maydonchasida texnika va yong‘in xavfsizligi hamda qurilish maydonchasing qo‘riqlanishi bo‘yicha zaruriy tadbirlarning bajarilishini ta’minalash;

qurilish ob’ektlarining sug‘urta qilinishini ta’minalash;

qurilishi tugallangan ob’ektlarni qabul qilish

dalolatnomasi imzolangandan keyin 10 kunlik muddatda

qurilish maydonchasidan o‘ziga tegishli mol-mulkni olib ketish.

5.2. Buyurtmachining majburiyatlari:

ishlarning kalendar rejasida belgilangan hajmda va muddatda Pudratchiga qurilish maydonchasini topshirish;

shartnomada belgilangan miqdorda va muddatda shartnomaning 1.1-bandida nazarda tutilgan ishlarni bajarganlik uchun Pudratchiga haq to‘lash;

Pudratchining yozma xabarnomasini olgan sanadan boshlab 2 hafta ichida ob’ektni qabul qilib olish.

## **6. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI**

6.1. Taraflar shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddatlarini buzgan taqdirda, aybdor taraf ikkinchi tarafga har bir kechiktirilgan kun uchun shartnoma bahosining foizi miqdorida neustoyka to'laydi.

6.2. Mazkur shartnoma bo'yicha boshqa majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun aybdor taraf ikkinchi tarafga zararni va boy berilgan foydani qoplaydi.

6.3. Agar Pudratchi shartnoma bo'yicha ishlar tugallangandan so'ng o'ziga tegishli materiallarni qurilish maydonchasidan olib ketmasa, Buyurtmachi qurilish maydonchasi bo'shatib berilgan sanaga qadar Pudratchiga bajarilgan ishlar uchun haq to'lashni to'xtatib turishga haqli.

6.4. Neustoykani to'lash taraflarni majburiyatlarini bajarish yoki kamchiliklarni bartaraf etishdan ozod etmaydi.

## **7. FORS-MAJOR**

7.1. Taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmanan, ularni oldindan bilish yoki oldini olish imkoniyati bo'lmanan holatlar (engib bo'lmas kuch) oqibatida majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun taraflardan birortasi ikkinchi taraf oldida javobgar emasdir. Bunday holatlar jumlasiga epidemiyalar, tabiiy ofatlar, harbiy harakatlari kiradi.

7.2. Tegishli savdo palatasi yoki boshqa vakolatli organ tomonidan berilgan guvohnoma engib bo'lmas kuchning mavjudligi va amal qilishining davomiyligini tasdiqlash uchun etarli hujjatdir.

7.3. O'z majburiyatlarini bajara olmayotgan taraf engib bo'lmas kuchning mavjudligi va uning shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishga ta'siri haqida ikkinchi tarafga xabarnoma berishi lozim.

7.4. Agar engib bo'lmas kuch holatlari uzlusiz 3 oy davomida amal qilib tursa va yaqin muddat ichida bekor qilinishi ehtimoli bo'lmasa, mazkur shartnoma taraflardan birining tashabbusi bilan ikkinchi tarafga yozma bildirishnoma yuborish yo'li bilan bekor qilinishi mumkin.

## **8. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI**

8.1. Ushbu shartnoma bo'yicha yoki u bilan bog'liq holda taraflar o'rtasida kelib chiqadigan barcha nizolar va ziddiyatlar taraflar o'rtasida muzokaralar olib borish yo'li bilan hal etiladi.

8.2. Muzokaralar olib borish yo'li bilan nizolarni hal qilishga erishilmagan taqdirda, mazkur shartnomaning tuzilishi, uning shartlarining o'zgarishi, buzilishi, ijro etilishi, bekor bo'lishi, tugatilishi va haqiqiyligi yuzasidan kelib chiquvchi barcha nizolar, kelishmovchiliklar va talablar O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi huzuridagi Hakamlik sudida uning Reglamentiga asosan hakamlik

sudyasi tomonidan yakka tartibda ko'rib chiqiladi. Hakamlik sudining hal qiluv qarori taraflar uchun qat'iy va majburiy hisoblanadi.

## 9. KORRUPSIYAGA KARSHI TALABLAR


9.1. Ushbu shartnomaning har bir taraflari bir-biriga nisbatan amaldagi korrupsiyaga qarshi kurash talablari, shu jumladan, bu bilan cheklanib qolmasdan, barcha amaldagi qonun va qoidalarga oid shartlarni va talablarni tadbiq etilishini ifodalaydi va kafolatlaydi.

9.2. “Iste’molchi” “Etkazib beruvchi”ga mazkur shartnoma doirasida qo‘yidagilarni kafolatlaydi va qo‘yidagi majburiyatlarni xam o‘z zimmasiga oladi: Shartnomaning amal qilish muddati davomida u (shuningdek, uning xodimlari, direktorlari, agentlari va boshqa vakillari), iste’molchi manfaatlari uchun agent yoki vakil sifatida harakat qilib, “Etkazib beruvchi”ning korruziya qarshi amaldagi talablariga va O‘zbekistan Respublikasiying barcha qonun va qoidalariiga kat’iy rioya kiladi.

## 10. YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI

“Pudratchi”

“Oqqurg‘on Building” XK  
Manzil: Urgut tumani Mirzabog‘lon-  
Chep MFY  
INN: 305600594  
OKONX: 41100  
X/R: 2020800000890633001  
Bank: AT Turonbank Toshkent Urgut  
bo‘limi  
MFO: 00446  
Rahbar: S.Nurmatov  
M.O.  (imzo)



“Buyurtmachi”

Urgut tuman maktabgacha ta’lim  
bo‘limi  
Manzil: Urgut shaxri Navoiy  
shox kuchasi  
INN: 207266806 OKONX:  
92400  
X/R:  
100022860182367091100251094  
23402000300100001010  
Toshkent sh. Markaziy Bankining  
Toshkent sh. XKKM  
MFO: 00014 INN: 201122919  
Rahbar:  J.Zoitov



**URGUT TUMAN ADLIYA BO'LIMI  
YURIDIK XIZMAT KO'RSATISH MARKAZI**

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA  
HUQUQIY XULOSA**

№

**1. Loyihaning turi:**Shartnoma

**2. Loyihaning nomi:** oldi – sotdi shartnomasi

**3. Loyihaning mazmuni:**

Urgut tuman MTB nomidan J.Zoitov nizom asosida harakat qiluvchi bir tomondan va “Oqqurg‘on Building” XK nomidan nizom asosida harakat qiluvchi S.Nurmatov ikkinchi tomondan, quyidagilar to‘g‘risida mazkur shartnomani tuzdilar:

Shartnomaning umumiyligi summasi 1 065 000 000 (Bir milliard oltmis besh million) so‘mni tashkil etadi.

**4. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:**

Urgut tuman maktabgacha ta’lim bo’limi tomonidan ishlab chiqilgan va 2022-yil 22-sentabr kuni HN80528386 -son hujjat raqami bilan dasturga kiritilgan.

**XULOSA:**

Loyiha O‘zbekiston Respublikasi **Fuqarolik kodeksi**, O‘zbekiston Respublikasining “Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida” 1998-yil-29 avgustdaggi 670-I-son qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining «Davlat xaridlari to‘g‘risida»gi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 27-sentyabrdagi PQ-3953-son qarori hamda amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Bosh yuriskonsult



O. Doniyorov  
2022-yil 27-sentabr